

YANGI O'ZBEKISTON: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM

CONFERENCES.UZ 2023

DAVRIYLIGI: 2018-2023

DUNYODA BIRINCHI KASHF ETILGAN SAMOLYOT

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORVIJ O'LIY TA'LIM MUASSASALARI PROFESSOR-O'QUVCHILARI, YOSH O'QUMLAR, DOKTORANTLAR, MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLI TALABALAR

МОЩНОСТЬ ДВИГАТЕЛЯ 12 л.с. (8,8 кВт)

МАССА ДВИГАТЕЛЯ 77 кг

МАКСИМАЛЬНАЯ СКОРОСТЬ 48 км/ч

ЭКИПАЖ 1 человек

ПЛОЩАДЬ КРЫЛА 47 м²

ДЛИНА 6,4 м

РАЗМАХ КРЫЛЬЕВ 12,3 м

ВЫСОТА 2,7 м

ОСНОВНОЙ МАТЕРИАЛ ДЕРЕВО (Ель)

МАССА:

- ПУСТОГО 274 кг
- СНАРЯЖЁННОГО 338 кг

Орвилл Райт

Уилбур Райт

TOSHKENT SHAHAR, AMIR TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.

+998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00

WWW.TAQIQOT.UZ
WWW.CONFERENCES.UZ

APREL №51

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИННОВАЦИЯ, ФАН
ВА ТАЪЛИМ
1-ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
ИННОВАЦИИ, НАУКА
И ОБРАЗОВАНИЕ
ЧАСТЬ-1**

**NEW UZBEKISTAN:
INNOVATION, SCIENCE
AND EDUCATION
PART-1**

ТОШКЕНТ-2023



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 51-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 апрель 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 24 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган еттита устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофик:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари тахтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Хамидович «ТИИМСХ»

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЙЎНАЛИШИ

1. Karamanova Benazir, Abatbaeva Gúlzira SAYLAW SISTEMASI ZAMANAGÓY DEMOKRATIYALIQ MÁMLEKET INSTITUTI SIPATINDA	7
2. Hosilmurodova Fotima Ne'matulla qizi PROKURATURA ORGANLARINING DAVLAT HOKIMIYATI TIZIMIDA AHAMIYATI... 9	9
3. Qadambayeva Ozoda Umid qizi SUD HOKIMIYATI – DAVLAT HOKIMIYATINING MUSTAQIL TARMOG‘I SIFATIDA. 12	12
4. Ismoilov Shohabbos G‘ayratjon o‘g‘li IQTISODIY JOSUSLIK (KIBERJOSUSLIK)NI KVALIFIKATSIYA QILISHNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI	15
5. Berdimuratova G.M, Salomova Ruxshona INSON HUQUQLARI SOHASIDA AYBSIZLIK PREZUMPSIYASI PRINSIPI	18
6. Хакимова Инобатхон Марксовна СУДЛАРНИНГ ХОТИН-ҚИЗЛАР ҲУҚУҚЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШ БОРАСИДАГИ ФАОЛИЯТИ.....	21



ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЙЎНАЛИШИ

SAYLAW SISTEMASI ZAMANAGÓY DEMOKRATIYALIQ MÁMLEKET INSTITUTI SIPATINDA

Karamanova Benazir,
Qaraqalpaq Mámleketlik Universiteti
Yuridika fakulteti
Jinayiy-huqiqiy hám puqaraliq-huqiqiy pánler
kafedrası stajyor-oqitiwshisi
benazirkaramanova@gmail.com
Abatbaeva Gúlzira,
Qaraqalpaq Mámleketlik Universiteti
Yuridika fakulteti 1- basqishstudenti

***Annotaciya.** Maqalada saylaw sistemasiniń Ózbekstan Respublikası huqıqıy sistemasındaǵı tutqan ornı hám roli; Ózbekstanda huqıqiy demokratiyalıq mámleket qurıw hám puqaralıq jámiyetin qalıplestiriw pocsinde saylaw sistemasiniń áhmiyeti haqqında sóz etiledi.*

***Tayanish sózler.** Ózbekstan Respublikası Konstituciyası, Ózbekstan Respublikası Saylaw Kodeksi, huqıq, aktiv saylaw, passiv saylaw, demokratiya.*

Ózbekstan Respublikası Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevtiń 2022-jıl 20-dekabrdegi Oliy Majlis hám Ózbekstan xalqına Múrájatnamasında atap ótkenlerindey: «Hesh kimniń umitıwǵa haqı joq – nızam talapları hám insan huqıqları – biz ushın joqarı qádiriyat» [1] esaplanadı.

Belgili bolǵanıday, XX ásir ekinshi yarımınan baslap puqaralardıń saylaw huqıqları hám erkinlikleri máselesi belgili xalq aralıq shólkemler shuǵıllanatuǵın máselelerdiń birine aylandı. Ádette bunday hújjetler BMSH sıyaqlı xalq aralıq shólkemler tárepinen qabıl qılınıp, olar mámleketler tárepinen tán alınadı. Puqaralardıń keleshegi saylawlarǵa baylanıslı eken, hár bir saylawshı bul processte belsendi qatnasıwı hám ózleriniń qálewleri boyınsha saylawı kerek.

Respublikamızda ámelge asırılıp atırǵan barlıq sociallıq-siyasiy reformalar demokratiyalıq principlerge tiykarlanǵan bolıp, demokratiyanıń eń zárúr principleriniń biri puqaralardıń siyasiy huqıqların ámelge asırıw, óziniń erk-ıqrarın bildiriw ushın zárúrli bolǵan real huqıqiy shárayat, nızamlı tiykar jaratıwdan ibarat. Saylaw huqıqı pútkil dúnya júzinde tán alınǵan eń zárúrli konstituciyalıq siyasiy huqıqlarınan birewi bolıp, puqaralarǵa olardıń mámleketlik basqarıwdaǵı qatnasıwınıń eń áhmiyetli kepilligi bolıp tabıladı.

Ózbekstan Respublikası puqaraları jámiyet hám mámleket islerin basqarıwda tuwrıdan-tuwrı hám óz wákilleri arqalı qatnasıw huqıqına iye. Bunday qatnasıw ózin-ózi basqarıw, referendumlar ótkeriw hám mámleket uyımların demokratiyalıq tárizde shólkemlestiriw jolı menen ámelge asırıladı. Bul huqıq Ózbekstan Respublikası Konstituciyasınıń 32-statyasında bekkemlengen.

Saylaw túsinigi – ashıq yamasa jasırın dawıs beriw jolı menen kimdidur saylaw tártibi. Saylaw processinde júzege keletuǵın múnasibetlerdi tártipke salıwshı huqıqiy normalar saylaw huqıqı dep ataladı. Saylaw huqıqı puqaralardıń konstituciyalıq huqıqı bolıp esaplanadı.

Puqaralardıń saylaw huqıqı aktiv hám passiv saylaw huqıqına bólinedi. **Aktiv saylaw huqıqı** – yaǵınıy saylaw huqıqı tikkeley demokratiyanıń bir kórinisi bolıp, ol hárbir puqaranıń dawıs beriw menen qatnasıwın názerde tutadı. Bul huqıqqa nızamda belgilengen málim jasqa jetken, qatnasıq uqıplılıǵına jaramlı mámleket puqaraları iye boladı. Bizniń mámleketimizde saylaw huqıqına 18 jasqa tolǵan Ózbekstan Respublikası puqaraları iye. Sud tárepinen uqıpsız dep tabılǵan puqaralar, sonday-aq sud húkimi menen erkinen ayırıw orınlarında qamaqta saqlanıp atırǵan adamlar saylanıwı múmkin emes hám saylawda qatnaspaydı. Bul haqqında Ózbekstan Respublikası Konstituciyasınıń 117-statyasında belgilengen. **Passiv saylaw huqıqı** degende belgili jasqa jetken, huqıqiy háreket uqıplılıǵına iye puqaralar bul huqıqqa yaǵınıy saylanıw huqıqına iye



bolatuginligin tusiniwimiz kerek. Aktiv saylaw huqiqinan passiv saylaw huqiqinin tiykargi parqi sonda, birinshisi puqaranin basqa 2 adamga dawis beriw bildirse, ekinshisi saylawda ozi talaban boliw mumkinshiligin anlatadi. Passiv saylaw huqiqina iye bolgan puqaralardin huqiqin amelge asiriwda kobirek sheklewler yagniy talaplar qoyiladi. Aktiv saylaw huqiqin amelge asiriwda bunday talaplar joq. Bul da ayirmashiligin korsetedi.

Ўzbekstan Respublikasida saylaw komissiyalariga – saylaw processi ustinen sholkemlestiriv, basshiliq etiw waziyatalari yukletilgen. Ўzbekstan Respublikasi Saylaw kodeksinin 11-statyasina tiykarlanip saylaw komissiyalari sistemasina tomendegiler kiredi:

- orayliq saylaw komissiyasi;
- welayat, rayon ham qala saylaw komissiyalari;
- okrug saylaw komissiyalari;
- uchastka saylaw komissiyalari.

Saylaw komissiyalari ham olardin agzalari oz iskerligin har qanday mamleketlik uyimlardan, jamiyetlik birlespelerden ham lawazimli shaxslardan biygarez halda amelge asiradi.

Saylaw komissiyalarinin jumisina aralasiwga jol qoyilmaydi ham bunday aralasiw nizamga muwapiq juwapkershilikke tartilwina sebep boladi. Saylaw komissiyalari ham olardin agzalari oz iskerliginde Ўzbekstan Respublikasi Konstituciyasina, Saylaw kodeksine ham basqada nizam hujjetlerine amel etedi.

Ўzbekstan Respublikasi Saylaw kodeksi 25 iyun 2019 jili qabil etildi. Usi sanege shekem Ўzbekstan Respublikasida amelde bolgan 5 nizam, yagniy “Ўzbekstan Respublikasi Prezidenti saylawi tuwrısında”gi, “Ўzbekstan Respublikasi Oliy Majlisina saylaw tuwrısında”gi, “Xalq deputatlari welayat, rayon ham qala keñeslerine saylaw tuwrısında”gi, “Ўzbekstan Respublikasi Orayliq saylaw komissiyasi tuwrısında”gi, “Puqaralar saylaw huqiqalarinin kepillikleri tuwrısında”gi nizamlar Ўzbekstan Respublikasi Saylaw kodeksi kushke kirgeninen keyin yagniy 26 iyun 2019 jildan oz kushin joytti.

Ўzbekstan Respublikasi puqaralari mamleket hakimiyati wakillik organlarina saylaw ham saylaniw huqiqina iye. Har bir saylawshi bir dawisqa iye. Dawis beriw huqiqi, ozinin qalewin bildiriw tenligi ham erkinligi nizam menen bekkemlenedi. Ўzbekstan Respublikasi Prezidenti saylawi, Ўzbekstan Respublikasi Oliy Majlisi Nizamshiliq palatasi hamde Qaraqalpaqstan Respublikasi Joqari Keñesine, welayat, rayon, qala mamleket hakimiyati wakillik organlarina saylaw olardin wakillik muddeti tamam bolgan jilda – dekabr ayi ushinshi on kunliginin birinshi ekshembisinde otkiziledi. Saylaw uliwmalik, ten ham tuwrıdan-tuwrı saylaw huqiqi tiykarında jasırım dawis beriw joli menen otkiziledi [2].

2021-jil 8-fevral kuni qabil qilingan “Saylaw nizamshiligin jetilistiriliwi munasibeti menen Ўzbekstan Respublikasi ayrim nizam hujjetlerine ozgertiw ham qosimshalar kiritiw haqqında”gi nizamga muwapiq saylawlar oktyabr ayında otkiziliwi belgilendi. Endi joqaridağılarga saylawlar wakillik muddeti tamam bolgan jildin – oktyabr ayi ushinshi on kunliginin birinshi ekshembisinde otkiziliwi belgilendi. Puqaralar jınısı, tili, dinge munasibeti, siyasiy kelip shıǵıwı, maǵlıwmatına qaramastan ten saylaw huqiqina iye [3].

Juwmaqlap aytqanda, erkin ham adil otkiziletugin demokratiyalıq saylawlarda en munasip shaxs xalq tarepinen saylanıwı xalq parawanlıǵı ham mamleket rawajlanıwı jolında xızmet qiladı.

Paydalanılǵ'an ádebiyatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi // «Xalq so'zi» gazetasi. 21 dekabr, 2022 yil. - № 272 (8334).
2. Ўzbekstan Respublikasi Konstituciyasi <https://lex.uz/ru/docs/20596#39943>
3. Ўzbekstan Respublikasi Saylaw Kodeksi <https://lex.uz/ru/docs/4386846>



PROKURATURA ORGANLARINING DAVLAT HOKIMIYATI TIZIMIDA AHAMIYATI

Hosilmurodova Fotima Ne'matulla qizi
O'zbekiston Milliy universiteti "Ijtimoiy
fanlar" fakulteti Yurisprudensiya: Biznes
huquqi yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari tizimi, uning asosiy vazifa va yo'nalishlari, faoliyatining asosiy prinsiplari, prokuratura organlarining yagona markazlashtirilgan tizimi orqali qonuniylik va huquq tartibotni taminlash, fuqarolarning huquqlari va erkinliklari ta'minlanishida ushbu organning ahamiyati haqida keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, prokuratura organlari, Bosh prokuror, prokuror daxlsizligi, sud organi, qonuniylik, huquqbuzarlik profilaktikasi, javobgarlik, tezkor-qidiruv, surishtiruv, davlat ayblovi, protest, taqdimnoma, ariza, qaror, ogohlantiruv

O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari alohida vazifa bajaruvchi davlat organidir. O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori rahbarlik qiladigan prokuratura organlarining yagona markazlashtirilgan tizimidir. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradilar.

Prokuratura organining tarixiga keladigan bo'lsak, u birinchi bo'lib Fransiyada tashkil etilgan. Rossiyada prokuratura Imperator Pyotr davrida vujudga kelib, keyinchalik Turkiston Rossiya tomonidan bosib olingandan so'ng ham, O'zbekiston SSR tarkibiga kirgach ham prokuratura organlari mavjud bo'lgan. Sobiq Ittifoq davrida prokuratura organi davlatning va fuqarolarning manfaatlarini himoya qiladigan organ deb ta'riflangan bo'lsada, faqat hukmron sinflarning manfaatlarini ko'zlab ish yuritgan. So'ngra mustaqillik sharofati bilan sobiq Ittifoq tizimi yemirilib, prokuratura tizimi qaytadan tashkil etildi. Shunday qilib, prokuratura maqomi O'zbekiston Konstitutsiyasida alohida bobda mustahkamlandi va Konstitutsiya qabul qilingandan keyin 1992-yil dekabrda "Prokuratura to'g'risida" qonun qabul qilindi.

Prokuratura organlari hokimiyatning alohida tarmog'ini tashkil qilmay, turli mamlakatlarda biror-bir hokimiyat tarmog'i tarkibida faoliyat yuritadi. AQShda prokuratura Adliya organlari ya'ni ijro hokimiyati tizimiga kirsada, Italiyada esa sud organi tizimiga kiritilgan. O'zbekiston Respublikasida esa prokuratura organi alohida maqomga ega bo'lgan davlat organi hisoblanadi. Hatto Konstitutsiyamizda prokuratura uchun alohida bob mavjud. Demak, u qonunchilik hokimiyatiga ham, ijro hokimiyatiga ham, sud hokimiyatiga ham kirmaydi. Prokuratura uchun Konstitutsiyada maxsus bob ajratilishi unga konstitutsiyaviy maqom berib, ushbu organning ahamiyati muhimligidan dalolat beradi.

Konstitutsiyamizning 119-moddasida [1] prokuratura organi yagona tizim ekanligi, prokuror xodimlarning qay tartibda tayinlanishi haqida so'z yuritilgan. O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining yuqori bog'ini Bosh prokuratura hisoblanib, unga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadigan hamda lavozimidan ozod etiladigan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori rahbarlik qiladi.

O'zbekiston Respublikasi "Prokuratura to'g'risida" qonunning 5-moddasida prokuratura organlarini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy prinsiplari keltirilib o'tilgan. Ushbu prinsiplar:

- Birlik;
- Markazlashganlik;
- Qonuniylik;
- Oshkorlikdir.

Markazlashganlik prinsipi - prokuratura organlari O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori rahbarlik qiladigan yagona markazlashgan tizimni tashkil etadi hamda quyi turuvchi prokurorlar yuqori turuvchi prokurorlarga va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga bo'ysunishi hamda hisobdorligi asosida faoliyat ko'rsatadi.

Qonuniylik prinsipi - prokuratura organlarining xodimlari o'z faoliyatlarida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda boshqa qonun hujjatlarining talablariga aniq rioya etishlari va ularni bajarishlari shart. Qonunlarni aniq bajarish va ularga rioya etishdan har qanday chekinish,



qanday asoslarga ko‘ra qilinishidan qat’i nazar, qonuniylikni buzish deb hisoblanadi va belgilangan javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Mustaqillik prinsipi - esa prokuratura organlari faoliyatiga hech qaysi organning aralashishiga yo‘l qo‘yilmasligi, o‘z faoliyatini mustaqil ravishda amalga oshirishidir.

Oshkoralik prinsipi - viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar xalq deputatlari tegishli Kengashlariga, zarurat bo‘lgan hollarda esa, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga qonuniylikning hamda jinoyatchilikka qarshi kurashning holati to‘g‘risida har yili axborot beradilar.

"Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunda prokurorlarning mustaqil faoliyatini ta’minlashga qaratilgan qoidalarni yetarlicha uchratish mumkin. Ularda prokurorga tazyiq o‘tkazish, unga boshqacha yo‘llar bilan ta’sir qilishga urinish, daxlsizligiga tajovuz qilish mumkin emasligi ko‘rsatilgan. Qonunning 5-moddasi oltinchi qismida “Prokurorning g‘ayriqonuniy qaror qabul qilishiga erishish maqsadida unga qanday shaklda bo‘lmasin biron-bir ta’sir ko‘rsatish yoki faoliyatini amalga oshirishiga to‘sqinlik qilish, uning daxlsizligiga tajovuz qilish, shuningdek prokuror yoki tergovchining ruxsatisiz tekshirishlar va dastlabki tergov ma’lumotlarini oshkor etish, prokurorning talablarini bajarmaslik belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo‘ladi”, deb ko‘rsatilgan. Qonundagi prokuraturaning mustaqilligini ta’minlovchi yana bir vosita prokuratura organlari xodimlarining daxlsizligiga qaratilgan alohida moddaning mavjudligidir. **49-moddada** “Prokuror va tergovchiga nisbatan jinoyat ishi qo‘zg‘atish va dastlabki tergov o‘tkazish prokuratura organlarining mutlaq vakolati hisoblanadi. Prokuratura organlari xodimlarining ma’muriy huquqbuzarlik va intizomiy nojo‘ya xatti-harakat uchun javobgarligi masalasi yuqori turuvchi prokuror tomonidan hal etiladi” - deb belgilanib, prokuror xodimlarning huquqlari alohida muhofazaga olingan.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev turli davlat organlari vazifalari haqida to‘xtalib o‘tib, "Prokuratura qonunlar ijrosi ustidan nazorat olib borishi zarur [2]" deb ta’kidlab o‘tgan. Konstitutsiyamizda prokuraturaning umumiy vazifalari belgilangan bo‘lsa-da, 2001-yil 29-avgustda yangi tahrirdagi qabul qilingan "Prokuratura to‘g‘risida"gi qonun uning asosiy vazifalari aniqlashtirilgan.

Prokuratura organlarining Prezident va Oliy Majlis Senati oldida hisobdorligi, ularning maqomini davlat organlari tizimidagi o‘rnini ko‘rsatadi. Xususan Konstitutsiyamizning 80-moddasi 12-bandiga muvofiq, Oliy Majlis Senati O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokurorining hisobotlarini tinglaydi. Ushbu hisobotlar prokuratura tomonidan har yili taqdim etiladi. Qonunning 14-moddasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga:

✓ qonuniylik hamda jinoyatchilikka qarshi kurashning holati to‘g‘risida — muntazam ravishda;

✓ o‘ta og‘ir jinoyatlar va favqulodda hodisalar to‘g‘risida — zudlik bilan;

✓ prokuratura organlari amalga oshirgan ishlar to‘g‘risida — har olti oyda axborot taqdim etadi.

Prokuratura organlarining markazlashgan tizimi mavjud bo‘lib, quyidagi tartibda tashkil etilgan;

- O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokuraturasi;
- viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalari;
- tumanlar va shaharlar prokuraturalari;
- viloyat prokuraturalariga tenglashtirilgan O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi,

O‘zbekiston Respublikasi Transport prokuraturasi;

• tuman prokuraturalariga tenglashtirilgan, hududiy harbiy, transport va ixtisoslashtirilgan prokuraturalar;

• O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzurida Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va Majburiy ijro byurosi, shuningdek ularning joylardagi bo‘linmalari faoliyat ko‘rsatadi.[3]

Prokurorlar qonuniylikni ham huquqbuzarlik profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshikurash olib borishda quyidagi nazorat hujjatlar orqali amalga oshiradi;

1. **Protest;**
2. **Qaror;**
3. **Taqdimnoma;**
4. **Ariza;**
5. **Ogohlantiruv** prokuror nazorati hujjatlaridir.[4]

Endigi navbatda ushbu nazorat hujjatlariga alohida alohida to‘xtalib o‘tamiz. **Protest** - qonunga



zid bo‘lgan hujjatga nisbatan protestni prokuror ana shu hujjatni qabul qilgan organga yoki yuqori turuvchi organga keltiradi. Mansabdor shaxsning noqonuniy qaroriga nisbatan ham xuddi shunday tartibda protest keltiriladi.

Qaror - prokuror mansabdor shaxs yoki fuqaro tomonidan sodir etilgan qonun buzilishining xususiyatiga qarab jinoyat ishi, ma’muriy yoki intizomiy javobgarlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqida qaror chiqaradi. prokuror qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ham qaror chiqaradi.

Taqdimnoma - prokuror qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to‘g‘risidagi taqdimnomani qonun buzilishini bartaraf etish vakolatlariga ega bo‘lgan organga yoki mansabdor shaxsga kiritadi.

Ariza - prokuror fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun sudga ariza bilan murojaat qiladi.

Ogohlantiruv - prokuror fuqarolarning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga, huquq va erkinliklariga, jamiyat hamda davlat manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan g‘ayriqonuniy xatti-harakatlar tayyorlanayotganligi xususida ishonchli ma’lumotlar mavjud bo‘lganda huquqbuzarlikning oldini olish maqsadida mansabdor shaxslar va fuqarolarni qonunning buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik haqida yozma ravishda ogohlantiradigan hujjat.

Xulosa qilib aytganda, prokuratura organlari huquqni muhofaza qiluvchi organlar toifasiga kiradigan, hamda boshqa davlat organlaridan mustaqil tarzda faoliyat olib boradigan, qonun ustuvorligi ta’minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini, O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarliklarni oldini olish va profilaktika qilish kabi asosiy vazifalarga ega bo‘lgan yagona markazlashtirilgan tizim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. "O‘zbekiston" - 2018.
2. Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. Toshkent."O‘zbekiston". 2018. 180-bet
3. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. To'ldirilgan va qayta ishlangan to'rtinchi nashr. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2022. – 400 bet
4. 257-II-son 29.08.2001. “Prokuratura to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish haqida.



SUD HOKIMIYATI – DAVLAT HOKIMIYATINING MUSTAQIL TARMOG‘I SIFATIDA

Qadambayeva Ozoda Umid qizi

O‘zbekiston Milliy universiteti “Ijtimoiy fanlar” fakulteti Yurisprudensiya: Biznes huquqi yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda mamlakatimizda sud hokimiyatining mustaqilligini ta’minlash, sud faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan sud-huquq sohasidagi islohotlar, sudning hokimiyat tizimidagi o‘rni haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Hokimiyatlar bo‘linish prinsipi, sud-huquq tizimi, qonun ustuvorligi, sud hokimiyati, odil sudlov, Harakatlar strategiyasi.

Sud hokimiyatning alohida tarmog‘i sifatida barcha demokratik mamlakatlarda e’tirof etilgan. Sobiq tuzumda sud sotsialistik tuzum himoyachisi sifatida namoyon bo‘lib, undan har qanday demokratik chiqish va harakatlarni jazolash vositasi sifatida foydalanilgan. Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab, sudlarni alohida mustaqil hokimiyat tarmog‘i sifatida vujudga keltirish, sud-huquq sohasini isloh qilish uchun harakatlar boshlandi. Jahon mamlakatlari tajribasi o‘rganilgan holda, mamlakatimiz Konstitutsiya loyihasini tayyorlashda sud hokimiyatini mustaqil hokimiyat sifatida o‘rnatishga alohida e’tibor berdi. Faqat mustaqil sud hokimiyati har bir fuqaroning vakolatli va xolis sudda ishni oshkora ko‘rish orqali o‘zining buzilgan huquqlarini himoya qilishi mumkinligiga kafolat bo‘lib xizmat qiladi. **“Davlat hokimiyatining tashkil etilishi va faoliyat tartibi vakolatlarning taqsimlanish prinsipi asosida amalga oshiriladi. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati — davlatning uchta asosiy tayanchidir”** [1] – degan g‘oya Konstitutsiyamizning 11-moddasida asosiy prinsip sifatida mustahkamlab qo‘yildi. Shuningdek, Konstitutsiyamizning 106-moddasida O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi degan tamoyil alohida ahamiyatga egadir.

O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati faqat sudlar tomonidan amalga oshiriladi. Hech qaysi boshqa organlar va shaxslar sud hokimiyati vakolatlarini o‘zlashtirib olishga haqli emas. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumlarining birida “sud hokimiyati” tushunchasiga quyidagicha ta’rif berildi: **“Sud hokimiyati - bu sudlarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari ustuvorligi prinsipiga so‘zsiz rioya qilish asosida jinoiy, fuqarolik, xo‘jalik ishlarini va ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rish bo‘yicha vakolatidir”**[2]. Sud hokimiyatining shakllanishida 1993-yil 6-mayda qabul qilingan **“O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”** gi, 1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan **“Sudlar to‘g‘risida”**gi qonunlar muhim rol o‘ynadi.

“Sudlar to‘g‘risidagi” Qonunning 4-moddasida sud hokimiyatining vazifalari keltirib o‘tilgan. Bunga ko‘ra sudning asosiy vazifalari fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlari, xalqaro shartnomalarida, shuningdek inson huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro hujjatlarda kafolatlangan huquqlari hamda erkinliklarini, davlat va jamoat manfaatlarini, yuridik shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Sudning faoliyati qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta’minlashga qaratilgandir. Qonunda sudlarning vakolatlari, tarkibi, ish yuritish shakli va prinsiplari batafsil belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta’kidlaganidek, **“Sudlarning asosiy vazifasi adolatni qaror toptirishdan iborat. Buning uchun sud har bir ish yuzasidan qonuniy, asosli va adolatli qaror chiqarishi lozim”**[3]. Bunga qadar – 2016-yil 21-oktyabrda davlatimiz rahbari tomonidan **“Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi farmon qabul qilinganini alohida ta’kidlash lozim. Chunki mazkur hujjat mamlakatimizda sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini, fuqarolar huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta’minlash, odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud-huquq tizimini yanada isloh qilishni jarayonlarini yangi bosqichga ko‘tardi.

Sud-huquq tizimidagi islohotlarning samaradorligini ta’minlashda Prezidentimiz tomonidan



Konstitutsiyamiz normalari asosida ishlab chiqilgan va 2017 yil 7-fevralda tasdiqlangan **2017-2021- yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi** nihoyatda muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu milliy taraqqiyot strategiyasining **“Qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari”** deb nomlangan ikkinchi ustuvor yo‘nalishi doirasida sohada ulkan islohotlar amalga oshirildi. Shuningdek, mamlakatimizda sud hokimiyatining mustaqilligini ta‘minlash, sud faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan sud-huquq sohasidagi islohotlar natijasida sud tizimi takomillashtirilib, 2017-yil 16-apreldagi Konstitutsiyaga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi Qonunga muvofiq Konstitutsiyamizning 107-moddasi quyidagicha bayon qilindi: **“O‘zbekiston Respublikasida sud tizimi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, harbiy sudlar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar iqtisodiy va ma‘muriy sudlari, fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari, jinoyat ishlari bo‘yicha tuman, shahar sudlari, tumanlararo, tuman, shahar iqtisodiy sudlari va tuman va shahar ma‘muriy sudlaridan iborat”**. Shu moddada sudlarning faoliyati qonun bilan belgilanishi va favqulodda sudlar tuzishga yo‘l qo‘yilmasligi haqidagi qoidalar saqlab qolindi. Boshqa hokimiyat organlari kabi sud hokimiyati organlari tizimini tashkil etish, vakolatlarini belgilash Oliy Majlis palatalarining birgalikdagi vakolatlariga kiradi. Bu bandda sudlarni tashkil etish tartibi deganda, sud organlariga sudyalarni saylash yoki tayinlash masalasi ko‘riladi. Sud hokimiyat tarmog‘i, ma‘lum sud organlaridan iborat bo‘lsa, sud organlari, asosan, sudyalardan iborat bo‘ladi. Sud hokimiyati tizimiga kiruvchi Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud va uning quyi pog‘onadagi organlari, turli yo‘llar orqali tayinlash tartibida vujudga keladi. Sudlarni tashkil etish va tayinlash, saylash tartibi haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, Konstitutsiyaning 108-moddasiga asosan, Konstitutsiyaviy sud O‘zbekiston Prezidentining taqdimiga binoan, O‘zbekiston Oliy Majlisining Senati tomonidan Respublika Sudyalar oliy kengashi tavsiya etgan siyosat va huquq sohasidagi mutaxassislar orasidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi vakilini qo‘shgan holda saylanadi. Respublika Oliy sudi raisi, o‘rinbosarlari, sudyalari Respublika Prezidentining taqdimnomasiga binoan Oliy Majlis Senati tomonidan saylanadi va lavozimidan ozod etiladi. Viloyatlar va Toshkent shahar sudining raislari va rais o‘rinbosarlari, O‘zbekiston harbiy sudining raisi, Sudyalar oliy kengashining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi. Qoraqalpog‘iston sudlarining raislari va rais o‘rinbosarlari Respublika Jo‘qorg‘i Kengesi Raisining, O‘zbekiston Sudyalar oliy kengashining xulosasi asosida O‘zbekiston Prezidenti bilan kelishilgan taqdimnomasiga binoan Jo‘qorg‘i Kenges tomonidan tayinlanadi. Qoraqalpog‘iston sudlarining sudyalari tumanlararo, tuman (shahar) sudlarining raislari va sudyalari O‘zbekiston Sudyalar oliy kengashining O‘zbekiston Prezidenti bilan kelishilgan taqdimnomasiga binoan Jo‘qorg‘i Kenges tomonidan tayinlanadi. Harbiy sudlarning, viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining sudyalari, tumanlararo, tuman (shahar) sudlarining raislari va sudyalari O‘zbekiston Prezidenti bilan kelishilgan holda Sudyalar oliy kengashi tomonidan tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi. [4]

Oliy yuridik ma‘lumotga ega va yuridik ixtisoslik bo‘yicha kamida yetti yillik, qoida tariqasida, sudya sifatida kamida ikki yillik mehnat stajiga ega bo‘lgan O‘zbekiston fuqarosi Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudining, viloyat sudining, Toshkent shahar sudining, Respublika harbiy sudining sudyasi bo‘lishi mumkin.

Oliy yuridik ma‘lumotga va yuridik ixtisosligi bo‘yicha kamida o‘n yillik, shu jumladan, qoida tariqasida, sudya sifatida kamida besh yillik mehnat stajiga ega bo‘lgan O‘zbekiston fuqarosi Oliy sudning sudyasi bo‘lishi mumkin.

Sudyalar birinchi marta besh yillik muddatga, navbatdagi o‘n yillik muddatga va sudyalik lavozimida bo‘lishning muddatsiz davrigacha belgilangan tartibda tayinlanadi yoki saylanadi.

Sudyalikka tayinlanadiganlar oldiga qo‘yiladigan talablarni sudya darajasiga qarab: oliy yuridik ma‘lumot, ma‘lum joyda tegishli ish staji va fuqarolik deb ko‘rsatish mumkin. Ilk bor lavozimga saylangan yoki tayinlangan sudya o‘z vakolatlarini amalga oshirishga qasamyod qilganidan keyin kirishadi. Qasamyod yuqori sud organida qabul qilinadi. Sudyalarning mustaqilligi alohida kafolalanadi.

“Sudlar to‘g‘risida” gi yangi tahrirdagi qonunda sudyalarning maqomi, ularning huquq va majburiyatlari, sudyalar mustaqilligini ta‘minlash uchun olib boriladigan ishlar, sudyaning



daxlsizligi, sudyaga hurmatsizlik qilganlik uchun javobgarlik, sudyalarning vakolatini to'xtatish va vakolatlarini muddatidan ilgari tugatishning alohida tartiblari belgilab qo'yilgan. Masalan, ushbu Qonunning 65-66-moddalarida davlat organlari va boshqa organlar, korxonalar, muassasalar hamda tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolar sudyalarni hurmat qilishi va ularning mustaqilligi prinsipiga rioya etishi shart ekanligi, sudyaga hurmatsizlik qilish, xuddi shuningdek uni ochiqdan-ochiq mensimaslikdan dalolat beruvchi xatti-harakatlar qilish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'lishi, shuningdek, sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmasligi, muayyan ishni har tomonlama, to'la va xolisona ko'rib chiqishga to'sqinlik qilish yoki g'ayriqonuniy sud hujjati chiqarilishiga erishish maqsadida sudyalarga qanday bo'lmasin ta'sir ko'rsatish qonunga muvofiq jinoiy javobgarlikka sabab bo'lishi keltirib o'tilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat. – T. : “O'zbekiston”, 1992. 41-bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi qarorlari to'plami. 1991-1997. – T. : “Sharq”, 1997. 5–6-betlar.
3. <https://pravacheloveka.uz/oz/news/m7181>
4. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. To'ldirilgan va qayta ishlangan to'rtinchi nashr. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2022. –400 bet.



IQTISODIY JOSUSLIK (KIBERJOSUSLIK)NI KVALIFIKATSIYA QILISHNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI

Ismoilov Shohabbos G‘ayratjon o‘g‘li,
Buxoro shahar prokurorining
yordamchisi, 2-darajali yurist
E-mail: shoxa.ismailov2002@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada iqtisodiy josuslik (kiberjosuslik)ni kvalifikatsiya qilishning zamonaviy muammolari va uning xususiyatlari sanab o‘tilgan. Kiberjosuslik bozorda sharoitlarida jinoyat qonuni bilan taqiqlangan insofsiz raqobat turlaridan biri hisoblanadi. Muallif qonun hujjatlari va xorijiy ixtisoslashtirilgan ilmiy adabiyotlarni huquqiy tahlil qilish asosida iqtisodiyot va davlat sub’ektlariga moddiy va ma’naviy zarar yetkazishi yoki korxonaga nomiga putur yetkazishi mumkin bo‘lgan kiberjosuslik orqali ma’lumotlarni egallashning o‘ziga xos jihatlari tavsiflaydi. Muallif raqobat munosabatlarida kiberjosuslik uchun javobgarlik tajribasini umumlashtiradi va mazkur qilmishlarga oid ayrim huquqiy masalalarini hal qilish yuzasidan o‘z nuqtai nazarini bildiradi.

Kalit so‘zlar: insofsiz raqobat, xalqaro iqtisodiy aloqalar, iqtisodiy (kiber) josuslik, ma’lumotlarni yashirin egallash, yuridik shaxslarning ishchanlik obro‘si.

Iqtisodiy josuslik - bu jismoniy kirish yoki masofaviy ma’lumot to‘plash vositalaridan foydalanish orqali amalga oshiriladigan yashirin operatsiya (yoki bunday operatsiyalarning bir nechitasi) hisoblanadi [1]. Mutaxassislarining ta’kidlashicha, josuslikni kvalifikatsiya qilish noaniq va qarama-qarshi, kolliziyalarga boydir [1, 2, 3].

Ko‘p hollarda josuslik obyekti bo‘lgan tijoriy tashkilotlarning o‘z xatti-harakatlari uning qonuniyligini anglatgan holda noto‘g‘ri talqin qilinadi: javobgarlikni amalga oshirish uchun sud vositalarga murojaat qilmasligi keng tarqalib ketganligi ularning josuslik obyekti bo‘lishga roziligini anglatmaydi, yoki ularga nisbatan majburiyat yo‘qligini tan olishni ko‘zda tutmaydi.

Huquqning josuslikka nisbatan o‘ta sabr-bardoshli va tolerantligi Syracuse University College of Law (AQSh) professori U.Benks tomonidan qayd etilgan. U huquqni bugungi kunda rivojlangan iqtisodiy josuslik va ommaviy elektron kuzatuv amaliyotining “beparq guvohi” deb ataydi [3]. Kibermakon turli kompaniyalar pozitsiyalaridagi tengsizliklarni kamaytiradi: qudratli tijoriy tashkilotlarning jiddiy kiberresurslari ularning xususiy sektorlarida sezilarli zaifliklarni taqozo etadi. Bu ularni josuslikni cheklash yo‘llarini izlashga majbur qilmoqda.

N.Djupillat kiberjosuslik amaliyotining rivojlanishiga qarshilik ko‘rsatish imkonini berishi haqidagi pozitsiyani himoya qiladi, chunki kiberjosuslik an’anaviy josuslikdan, jumladan, unga huquqiy baho berishda ancha farq qiladi. Muallif ma’lumotlarni masofaviy yig‘ish usullarining bir nechta toifalarini ajratib ko‘rsatib, agar uning obyekti bir davlatda joylashgan bo‘lsa va tegishli faoliyat boshqa davlat tomonidan yoki uning nomidan amalga oshirilsa, kiberjosuslik deb tasniflanishi mumkin deydi [1]. Bu usullarga kompyuter tarmoqlaridan foydalanish, aloqa vositalarini razvedka qilish yoki ushlab, davlat-xususiy sheriklik yoki xalqaro shartnomalar asosida faoliyat yurituvchi maxfiy axborot almashish dasturlarini kiritadi.

Kompyuter tarmoqlaridan foydalanish (shu jumladan xakerlik hujumlari) majburlashdan foydalanish bilan bog‘liq deb hisoblanishi mumkin, bu qilmishni boshqa tijoriy tashkilotning ishiga noqonuniy aralashuv sifatida kvalifikatsiya qilish sharti hisoblanadi. Bundan tashqari, xakerlik hujumlari hududga noqonuniy kirish potentsial shakli hisoblanadi, chunki davlatlar o‘z hududida joylashgan xususiy kiber infratuzilmaga nisbatan huquqlarga ega.

Aloqa vositalarini ushlab usuli raqamli asrda yangi, shu jumladan ekstraterritorial va transmilliy xususiyatdagi imkoniyatlarga ega bo‘ldi. Ushbu usuldan foydalanishning huquqiy kvalifikatsiyasi ushlab qayerda sodir bo‘layotganiga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Masalan, suv osti kabellariga ulanish (ular Internet-trafikning qariyb 99 foizini tashiydi) 1884 yildagi suv osti telegraf kabellarini himoya qilish bo‘yicha xalqaro konventsiyaga zid bo‘lishi mumkin.

Chet el hududida ushlab punktlari yoki maxsus serverlarni joylashtirish boshqa davlatlarning ishlariga noqonuniy aralashishning bir ko‘rinishi, bunday infratuzilmani xalqaro rejimga ega bo‘lgan hududlarda joylashtirish esa ulardan tinch maqsadlarda foydalanish maqsadiga zid bo‘lishi mumkin. Shuningdek, ko‘lami va kontekstga qarab, davlat o‘z hududidan bevosita amalga



oshirilgan aloqalarni ushlab qo‘lishi ham noqonuniy bo‘lishi mumkin.

Yashirin axborot almashish dasturlarini amalga oshirish, agar u hududida axborot to‘plangan davlat qonunchiligiga zid bo‘lsa yoki uchinchi davlatga qarshi qaratilgan bo‘lsa, davlat suverenitetini ham buzishi mumkin. Bunday dasturlar davlat xizmatlarining internet provayderlar, telekommunikatsiya kompaniyalari, internet-kompaniyalar (ijtimoiy tarmoqlar, “bulutli” xizmatlar, servis ilovalari va boshqalar) bilan tuzilgan shartnomalari, shuningdek, xalqaro shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

N.Jupillatning so‘zlariga ko‘ra, iqtisodiy kiberjosuslik, bir qator sabablarga ko‘ra davlatlar o‘rtasida keskinlikning kuchayishi va nizolarning paydo bo‘lishi xavfini yaratadi, bu uning misli ko‘rilmagan miqyosi, o‘ziga xos xususiyatlari va ehtimoliy oqibatlar bilan bog‘liq [1]. Kiberjosuslikning iqtisodiy samaradorligi va uning masofaviy tabiati global Internetning tobora taraqqiy etib borishi bilan birgalikda ma‘lumotlarni ommaviy yig‘ish uchun misli ko‘rilmagan imkoniyatlarni ochib beradi va shuningdek, uni an’anaviy shakllardagi josuslik amaliyotchilariga qaraganda kengroq davlatlar uchun ochib beradi.

Zamonaviy texnologiyalar razvedka maqsadlarida katta hajmdagi ma‘lumotlarni qayta ishlash imkonini beradi. Natijada, kiberjosuslik amaliyotida jiddiy "sakrash" sodir bo‘ldi, bu esa, o‘z navbatida, uning sifat xususiyatlarining o‘zgarishini keltirib chiqardi: an’anaviy, "bir nuqtaga qaratilgan" iqtisodiy josuslik davlat manfaatlariga kamroq zarar yetkazar edi va kirib borishi uncha chuqur emasdi. Bundan tashqari, kiberjosuslik garov moddiy yoki nomoddiy zarar etkazish bilan birga bo‘lishi mumkin.

Bizning fikrimizcha, kiberjosuslikning ushbu o‘ziga xos xususiyatlari uning xalqaro huquqiy kvalifikatsiya qilish va xalqaro huquqdagi an’anaviy josuslikning mavhum maqomi o‘rtasidagi farqlarni ham belgilaydi. Aralashmaslik to‘g‘risidagi amaldagi xalqaro huquqiy kontseptsiya tegishli aktlarning ko‘lami va mazmunidan kelib chiqqan holda kiberjosuslik amaliyotining rivojlanishini cheklash imkonini beradigan koordinatalar tizimidir. Bir qator davlatlarda (Braziliya, Frantsiya, Germaniya, AQSh) AQSh Milliy xavfsizlik agentligi tomonidan ommaviy kuzatuv faktlari aniqlanganligi munosabati bilan tutgan pozitsiyalari shuni ko‘rsatadiki, bu miqyos kiberjosuslikni unchalik maqbul deb bilmaydi, chunki bu davlatlarga o‘z hududida inson huquqlari asosiy kafolatlarini ta‘minlashga imkon bermaydi.

Boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashishga yo‘l qo‘yilmasligi xalqaro huquqiy tamoyili kiberjosuslik amaliyotining rivojlanishiga qarshi kurashishning eng asosiy huquqiy negizlaridan biri hisoblanadi. V. Banks boshqa yondashuvlarga ham e‘tibor qaratadi [3]. Jumladan, elektron kuzatuvni inson huquqlari nuqtai nazaridan 1966 yildagi Fuqarolik siyosiy huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro paktning 17-moddasidagi shaxsiy hayotga o‘zboshimchalik yoki noqonuniy aralashuvdan himoyalash kafolatlari va inson huquqlariga doir boshqa xalqaro bitim va shartnomalarning tegishli qoidalarini buzilishi deb hisoblash mumkin.

Shuningdek, davlatlar milliy xavfsizlik va boshqa maqsadlarda (shu jumladan iqtisodiy va tijorat) josuslikni farqlash, tor ma‘noda xavfsizlikni ta‘minlashga qaratilmagan tegishli xatti-harakatlarga nisbatan murosasizlik pozitsiyasini tanlashi mumkin. Buning uchun xalqaro miqyosda ichki huquqiy tartibga solish tajribasidan foydalanish mumkin, Jahon savdo tashkiloti mexanizmlari jalb qilinishi va 2001 yildagi Kompyuter axboroti sohasidagi jinoyatlar to‘g‘risidagi konventsioning tegishli qoidalari bilan to‘ldirilishi mumkin.

Lincoln Memorial University Duncan School of Law (AQSh) huquq professori M. Reyd iqtisodiy josuslikka qarshi kurashda alohida davlatlarning tajribasini o‘rganadi. U AQSh, Kanada, Yangi Zelandiya, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Yaponiya va ayrim Lotin Amerikasi davlatlarining yondashuvlarini tahlil qiladi va kiberjosuslik amaliyotining faol rivojlanishi va bu chaqiruvga global javob berishning kamchiliklarini qayd etadi [4].

Muallif buning sabablarini rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar manfaatlarini o‘rtasidagi qarama-qarshilik, xususiy sektor munosabatlarini o‘rnatishga bo‘lgan yondashuvlardagi farqlar, turli mamlakatlardagi madaniy va huquqiy tushunchalarning farqlanishi, milliy jinoyat qonunchilik siyosati yetarli darajada qat‘iy emasligi bilan bog‘laydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jupillat N. From the Cuckoo’s Egg to global surveillance: cyber espionage that becomes prohibited intervention // North Carolina journal of international law and commercial regulation. - Chapel Hill, 2017. - Vol. 42, N 4. - P. 933-988.



2. Lubin A. Espionage as a sovereign right under international law and its limits // International law students association quarterly. - Washington, 2016. - Vol. 24, Issue 3. - P. 22-28.
3. Banks W.C. Cyber espionage and electronic surveillance: Beyond the media coverage // Emory law journal. - Atlanta, 2017. - Vol. 66, Issue 3. - P. 513-525.
4. Reid M. A comparative approach to economic espionage: is any nation effectively dealing with this global threat? // University of Miami law review. - Coral Gables, 2016. - Vol. 70, Issue 3. - P. 757-829.



INSON HUQUQLARI SOHASIDA AYBSIZLIK PREZUMPSIYASI PRINSIPI

Berdimuratova G.M

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq
Davlat Universiteti dotsenti, PhD

Salomova Ruxshona

Qoraqalpoq Davlat Universiteti Yurisprudensiya
yoʻnalishi talabasi
Telefon: +998(99) 211 29 24
Rsalomova98@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotgan shaxsning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, bir qator rivojlangan xorijiy mamlakatlar jinoyat-protsessual qonunchiligida gumon qilinuvchi huquqlarini taʼminlanganligi, aybsizlik prezumpsiyasi, uning mazmuni, gumon qilinuvchi uchun mazkur prezumpsiyaning ahamiyati, gumon qilinuvchi huquqlarining kafolatlanishida aybsizlik prezumpsiyasining rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida oʻrganilgan.

Kalit soʻzlar: jinoyat, ayblanuvchi, sudlanuvchi, gumon qilinuvchi, kanonikal huquq, sud hukmi.

Aybsizlik prezumpsiyasi – aybdorning jinoyati qonuniy tartibda isbot qilinmaguncha, uni aybsiz deb faraz qilish. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi uning jinoyat sodir etishda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlangunga va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlangunga qadar aybsiz hisoblanadi. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi oʻzining aybsizligini isbotlab berishi shart emas yoki oʻzini aybdor deb koʻrsatish ham qonunda belgilangan tartibda aybi isbotlanmaguncha uni aybdor deb boʻlmaydi. Oʻzbekiston Respublikasi JPKning 23-moddasida koʻrsatilishicha, aybdorlikka oid barcha shubhalar, basharti ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan boʻlsa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi lozim. Qonun qoʻllanilayotganda kelib chiqadigan shubhalar ham gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi kerak.

Aybsizlik prezumpsiyasining ilk belgilari qadimgi yahudiy qonunlarida boʻlgan. Shuningdek, Qadimgi Rim huquqi bilan bogʻlangan boʻlib, XII asr Italiya huquqida aybsizlik prezumpsiyasi rasman amal qilgan. Bu davrda aybsizlik prezumpsiyasining qoʻllanilishi bugun talqin etiladigan darajada keng boʻlmagan. Yaʼni, hamma ham bu huquqdan foydalana olmagan. Prezumpsiyaning bu shakli tanlov prezumpsiyasi deb atalgan. Undan faqat sharaffi, namunali hayot kechirgan hamda yaxshi xulq-atvori bilan tanilgan insonlar, asosan, jamiyatning obroʻli vakillari foydalana olgan, xolos. Tanlov prezumpsiyasining mazkur cheklangan funksiyasi Kontinental Yevropa maktabida shakllangan. Bunga qarshi oʻlaroq, aybsizlik prezumpsiyasining barcha uchun teng boʻlishi kerakligi haqidagi nazariya Kanonikal huquqda vujudga kelgan. Mazkur maktab vakillari oʻz qarashlarini inson fitratan gunohsiz boʻladi, shuning uchun prezumpsiyani barchaga qoʻllash kerak, deya asoslashgan. XV asrga kelib, Italiyaning oʻzida aybsizlik prezumpsiyasining barcha uchun teng umumiy prinsip ekanligi eʼtirof etila boshlangan.

Shuningdek, Anglo-Amerikan huquq maktabida ham aybsizlik prezumpsiyasi parallel tarzda rivojlanib borgan. Aybsizlik prezumpsiyasining bugungi kundagi qiyofasi Uygʻonish davriga kelibgina aniq shaklga ega boʻldi. U qonuniy prinsip sifatida ilk marotaba 1789-yilda qabul qilingan Inson huquqlari toʻgʻrisidagi Fransiya deklaratsiyasida oʻz ifodasini topdi. XVIII asrning 2-yarmida aybsizlik prezumpsiyasi har bir insonga kafolatlangan asosiy konstitutsiyaviy huquq sifatida toʻla eʼtirof etildi. Uning zamonaviy qonun tizimlarida qatʼiy oʻrnatilishi XIX asrda yuz berdi. Lekin barcha jabhalarda inson huquqlari toʻla eʼtirof topgan XX asrda ham aybsizlik prezumpsiyasini inkor qiluvchi tuzum va davlatlar mavjud edi. Masalan, 30- yillarda Italiya va Germaniyada hukm surgan fashistlar diktaturasi bu prinsipni rasman inkor etdi. Ikkinchi jahon urushi davrida mazkur davlatlarda millionlab odamlarning sudsiz, hukmsiz qatl etilgani tarixiy haqiqatdir.

AQSHda Aybsizlik prezumpsiyasi tamoyili

Aybsizlik prezumpsiyasi tamoyili Amerika Qoʻshma Shtatlari qonunchiligiga 1894-



yili AQSH Oliy sudi tomonidan ko‘rilgan «The US vs. Coffins» ishi orqali kirib keldi. O‘shanda quyi instansiya sudining prisyajniylar hay‘atiga ayb isbotlanmaguncha ayblanuvchilar begunoh bo‘lishi kerakligi haqidagi ko‘rsatmani bermagani aniqlangan edi. Mazkur ish yuzasidan chiqarilgan AQSH Oliy sudi qarorida aybsizlik prezumpsiyasi o‘z ifodasini topadi: «Qonun jinoyat qilganlikda ayblangan shaxslarni ularning aybi aniq faktlar bilan isbotlanmagunga qadar aybsiz deb hisoblaydi». AQSH Konstitutsiyasida aybsizlik prezumpsiyasi maxsus moddalar bilan e‘tirof topmagan bo‘lsada, lekin 5, 6 hamda 14 -qo‘shimchalarda bu prinsipning amal qilishi belgilab qo‘yilgan. Buyuk Britaniyada aybsizlik prezumpsiyasi Angliya fuqarolar urushidan so‘ng qaror topdi. Bu davrda qamoqdagi asirlar uchun maxsus himoya vositalarini ishlab chiqish taqozosi aybsizlik prezumpsiyasining shakllanishiga turtki bo‘ldi.

Lekin amalda bu muhofaza choralaridan, asosan, puldor qatlam foydalana olgan, xolos. XVIII-XIX asrlarda Angliyada oddiy fermerlar, ishchilar hamda kambag‘allardan iborat mahbuslar uchun aybsizlik prezumpsiyasining amal qilishi afsonaday gap edi. Mahalliy sudlarda jinoyatlar, asosan, majburlov yo‘li bilan ayblanuvchilar bo‘yniga qo‘yilar, yarim soatga ham cho‘zilmaydigan sud ishlarida mahbuslarni osongina darralash, surgun qilish va hatto, osishga ham hukm qilib yuborilaverar edi. XIX asr mobaynida ishchilar sinfining siyosiy qarshiliklariga javoban Britaniya hukumati kuchli politsiya rejimini hamda qamoq tizimini joriy etadi. Lekin, harqalay, jiddiy tekshirish, guvohlarni chaqirtirish, politsiya tekshirishlarini shubha bilan o‘rganish kabi jarayonlarni o‘z ichiga oluvchi rasmiy sudlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Ammo XIX asr oxirigacha va hatto XX asrda ham sud ishlarida dalillarni soxtalashtirish, guvohlarni qo‘rqitish va ayblanuvchilar bo‘yniga jinoyatlarni majburlab qo‘yish kabi holatlar kamaymagan. Bularning barchasi, albatta, aybsizlik prezumpsiyasi talablariga tamomila zid edi.

Angliya maktabi

Avstraliyaga sud-huquq tizimi, jumladan, aybsizlik prezumpsiyasi tamoyili bevosita Angliyadan kirib kelgan. Shu boisdan aybsizlik prezumpsiyasining shakllanishi bu yerda ham Angliyadagi kabi kechgan. Avstraliya aholisining qashshoq qatlami dastlab aybsizlik prezumpsiyasi himoyasidan foydalana olmagan. Bu prinsipning amal qilishi, hatto, XX asr so‘nggi choragida ham jiddiy to‘siqlarga duch keldi. Yangi Janubiy Uels shtati sudining o‘tkazgan tadqiqotiga ko‘ra, 80-yillarning boshida jinoyat ishlarining 96 foizida ayblanuvchilar bo‘yniga jinoyatlar politsiyaning majburlashi bilan qo‘yilgan. O‘tkazilgan tekshiruvlar yana Avstraliyaning boshqa shtatlarida ham 80, 90-yillarda tergovlarda soxta dalillar, majburiy tan oldirishlar sodir etilganligini ko‘rsatgan. Hukumatlar turli holatlarda aybni isbotlash mas‘uliyatini aybsizlik prezumpsiyasiga zid ravishda talqin etganlar. Lekin, baribir, asosiy taomil sifatida politsiyaga yuklangan aybni isbotlash mas‘uliyati o‘zgarmagan. 1935-yil Angliyada ko‘rilgan mashhur Woolmington ishida „oltin qoida“ sifatida qabul qilingan e‘tirofqa ko‘ra, mahbusning aybini isbotlash ayblovcilar zimmasidagi burch sifatida belgilab qo‘yilgan. Mahbusni ayblash uchun esa shubhaning mavjud bo‘lishi talab qilingan.

O‘zbekiston qonunchiligi

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasiga ko‘ra, «Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko‘rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o‘zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta‘minlab beriladi».

Shuningdek, mustaqillikdan so‘ng yangi ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida ilk marotaba jinoyat protsessining xalqaro huquqiy normalariga mos keladigan tamoyillari mustahkamlandi: aybsizlik prezumpsiyasi, sud protsessi tortishuvga asoslanganligi, himoya huquqini ta‘minlash va boshqalar. Yangi Jinoyat-protsessual kodeksida himoya huquqi nafaqat e‘lon qilindi, balki sud ishining dastlabki bosqichidan, ya‘ni shaxs jinoyat sodir etishda gumon qilinib, qo‘lga olingan vaqtdan boshlab amalga oshirilishi ta‘minlandi. Jinoiy sud ishini yuritishda prokurorning roli ham o‘zgardi. Tortishuv tamoyiliga binoan prokuror protsessda teng huquqli tomonlardan biriga aylandi va sudni nazorat qilish vazifasidan ozod etildi. Endilikda, JPKga muvofiq, sudda jinoiy ishlar ko‘rib chiqilayotganda prokurorga davlat ayblovinini qo‘llab-quvvatlaydigan idora vakolatlari topshirildi [1].

Amaldagi qonunchiligimizga ko‘ra gumon qilinuvchining u ushlangan yoki gumon qilinuvchi deb e‘tirof etganligi to‘g‘risidagi qaror unga ma‘lum qilingan paytdan boshlab himoyachiga ega bo‘lish hamda uchrashuvlarning soni va davom etish vaqti cheklanmagan holda u bilan uchrashish huquqini kafolatlaydi. Himoyachi gumon qilinuvchilarning, ayblanuvchilarning,



sudlanuvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini qonunda belgilangan tartibda himoya qilishni amalga oshirish hamda ularga zarur yuridik yordam ko'rsatish vakolatiga ega bo'lgan shaxsdir. Himoyachining ishda ishtirok etishiga jinoyat protsessining har qanday bosqichida shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligiga bo'lgan huquqi amalda cheklangan paytdan boshlab ruxsat etiladi. Hattoki, gumon qilinuvchining yaqin qarindoshlari advokat bilan bir qatorda himoyachi sifatida ishtirok etishiga gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining iltimosnomasi bo'yicha surishtiruvchining, tergovchining qarori yoki sud ajrimiga binoan yo'l qo'yilishi mumkin [2].

Mamlakatimizda fuqarolarimiz biron bir surishtiruv, tergov organlariga olib kelinganda, uning huquqi, shuningdek, ushlab turilishi asoslari, nega davlat organiga keltirilgani haqidagi huquqlari tushuntirilishi shart. Bu esa «Xabeas korpus» instituti tushunchasini aks ettiradi. «Miranda qoidasi» ham huddi shunday. Qayd etish kerak, «Miranda qoidasi» – fuqaroni birinchi marta davlat organlari tomonidan biron bir ishga gumon qilinuvchi sifatida jalb qilayotganda, unga birlamchi huquqlari tushuntirib berilishi demakdir.

Xususan, ushlab chog'ida shaxs o'z huquqlari to'g'risida xabardor qilinishi lozimligi, uni ushlab turgan huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimi shaxs huquqlari tushunarli bo'lganmi, degan savolga ijobiy javob olishi lozimligi nazarda tutiladi.

Masalan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga kiritilayotgan «Xabeas korpus» va «Miranda qoidasi» tamoyillari inson huquq va erkinliklarini ta'minlash kafolati, jumladan, umume'tirof etilgan institutlar konstitutsiyaviy darajada kuchaytirilayotganidan dalolat.

Ayblov qo'yish vaqti va vakolatlari haqidagi munozaralar hozirgacha to'xtamagan va bu muammoni hal qilish uchun ba'zi mualliflar hatto dastlabki tergov davomida (oxirida emas) ayblovni shakllantirish va qo'zg'atish vakolatlarini topshirishni taklif qilmoqdalar. Biroq, ichki jinoiy jarayon uchun namuna bo'lgan mamlakatlarda ayblov qo'yish muammosi boshqacha hal qilinadi.

Fransiyada ayblanuvchining figurasi gumonlanuvchi ayblov e'lon qilish uchun birinchi marta tergov sudyasiga chaqirilgan paytdan boshlab paydo bo'ladi, u asossiz ayblovni istisno qilish uchun shaxsni faqat sudga berish huquqiga ega. Shaxsni ishda yordamchi sifatida jalb etish mumkin emas, deb hisoblaydi.

Germaniyada ayblanuvchi jinoiy ishda sud gumonning yetarliligi va uni sudga berish to'g'risida qaror qabul qilgandan so'ng paydo bo'ladi. Anglo-sakson huquq tizimiga ega mamlakatlarga kelsak, Qo'shma Shtatlarda ayblanuvchi bunday maqomga faqat politsiya tomonidan olib borilgan tergov tugagandan so'ng va sudga birinchi marta kelgan paytdan boshlab materiallar prokurorga topshirilgandan keyin ega bo'ladi, agar sudya shaxsqa qarshi ayblov qo'yish va ishni sudga ko'rib chiqish uchun materiallarning yetarli yoki yetarli emasligi to'g'risida qaror qabul qilganda qidiruv jarayonida jinoiy ta'qibning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, uning boshlanishi bilan u unga nisbatan qo'zg'atilgan shaxsqa tegishli protsessual maqom (ayblanuvchining maqomini anglatadi) berilishi kerak va faqat shu holatda. uning huquqlarini, shu jumladan himoya qilishni ta'minlash mumkin [3].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi xulosaga kelish mumkin. Anglo-sakson va kontinental huquq tizimiga ega bo'lgan mamlakatlarda jinoyat protsessida jinoiy javobgarlikka tortish tartibi o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, sudgacha bo'lgan ish yuritish yakunida amalga oshiriladi. Aybsizlik prezumpsiyasi bugungi kunda jinoyat huquqining muhim prinsipi sifatida umume'tirof etilgan xalqaro huquq normalarida hamda O'zbekiston milliy qonunchiligida qat'iy belgilab qo'yilgan. Asrlar osha shakllanish bosqichlarini o'tagan bu tamoyil insonlarning nohaq jazolanishlarini oldini olishga, muhimi, jamiyatda adolat muvozanatini o'rnatishga qaratilgan.

Foydanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005).
2. Jaan Ginter, Anneli Soo. The Right of the Suspect to Counsel in Pre-trial Criminal Proceedings, Its Content, and the Extent of Application. https://www.researchgate.net/publication/243972960_The_Right_of_the_Suspect_to_Counsel_in_Pre-trial_Criminal_Proceedings_Its_Content_and_the_Extent_of_Application
3. [https:// naukarus.com/institute-obveniya-nuzhdaetsiya-v-reformirovannii](https://naukarus.com/institute-obveniya-nuzhdaetsiya-v-reformirovannii).



СУДЛАРНИНГ ХОТИН-ҚИЗЛАР ХУҚУҚЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШ БОРАСИДАГИ ФАОЛИЯТИ

Хакимова Инобатхон Марқсовна,
Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия
университети магистранти,
телефон: +998958984020
inobat.x.m@gmail.com

Аннотация. Мазкур мақолада хотин-қизларнинг ҳуқуқларини таъминлашда одил судловни амалга оширишнинг аҳамиятига тўхталиб ўтилган. Муаллиф халқаро конвенция, декларация ва шартномаларда аёлларнинг бузилган ҳуқуқларини тиклаш масаласи белгиланган нормаларни кўриб чиққан. Шунингдек, оила, турмуш доирасидаги зўравонлик билан боғлиқ ҳуқуқбузарликларнинг бартараф этиш ва одил судловни амалга оширишда вужудга келаётган тўсқинликлар эътибор қаратилган.

Калит сўзлар: Конституция, тенг ҳуқуқлилиқ, декларация, пакт, одил судлов, гендер тенглик, зўравонлик, тазйиқ.

Одил судловга эришиш ҳуқуқ устуворлигининг асосий тамойили ҳисобланади. Унга эришишни таъминлаш мақсадида иштирокчи-давлатларнинг саъй-ҳаракатларини қўллаб-қувватлаш бўйича Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг фаолияти ҳуқуқ устуворлиги соҳасида олиб борилаётган ишларнинг асосий қисми ҳисобланади.

Одил судловга эришиш процессуал-ҳуқуқий ҳодиса сифатида халқаро даражадаги жиддий норматив ҳужжатларга асосланади. У барчага маълум умум қабул қилинган халқаро актларда ўз ифодасини топган. Булар: Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси (8-модда) [1], Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисида халқаро пакт (14-модда) [2], Инсон ҳуқуқлари ва асосий эркинликларини ҳимоя қилиш тўғрисида конвенция (6-модда) [3].

Ҳар кимнинг (эркакларнинг ҳам, хотин-қизларнинг ҳам) одил судловга эришиш ҳуқуқи инсон ҳуқуқлари бўйича бир қанча умумий халқаро ҳужжатларда белгилаб қўйилган. Хусусан, “Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисида халқаро пакт” (1966 й.) иштирокчи-давлатга ҳуқуқий ҳимояни талаб қилаётган ҳар қандай шахс учун ҳуқуқий ҳимояга бўлган ҳуқуқи ваколатли суд, маъмурий ёки қонун чиқарувчи органлар ёки давлатнинг ҳуқуқий тизимида назарда тутилган бошқа ваколатли органлар томонидан ўрнатилишини таъминлаш ва суд орқали ҳимоя қилиш имкониятларини ривожлантириш мажбуриятини юклайди. Пакт барча шахсларнинг судлар ва трибуналлар олдида тенглигини белгилайди. “Ирқий камситишнинг барча шакллари тугатиш тўғрисида” халқаро конвенция (ИКБШТХК) (1965 й.) иштирокчи-давлатлардан судлар ва одил судловни амалга оширувчи бошқа барча органлар олдида тенглик ҳуқуқини амалга оширишни талаб этади (5-модда). Инсон ҳуқуқларига оид умумий халқаро ҳужжатлар, яъни барча тоифадаги инсонларга бир хил татбиқ этиладиган ҳужжатлар билан бир қаторда, фақат хотин-қизлар ҳуқуқларига тааллуқли бўлган махсус ҳужжатларни алоҳида гуруҳга ажратиш лозим. Ушбу ҳужжатларда хотин-қизларнинг одил судловга эришиш ҳуқуқига алоҳида эътибор қаратилган “Хотин-қизларни камситишнинг барча шаклларига барҳам бериш тўғрисида” БМТ конвенцияси иштирокчи-давлатдан эркаклар билан тенглик асосида хотин-қизлар ҳуқуқларининг ҳуқуқий ҳимоясини ўрнатишни, ваколатли миллий судлар ва давлат муассасаларининг ёрдамида хотин-қизларнинг ҳар қандай камситилишига қарши уларнинг самарали ҳимоя қилинишини таъминлашни талаб этади (2-модда (с) банди).

• Хотин-қизларни камситишга барҳам бериш бўйича кўмита ўзининг 28-сонли умумий тавсиясида (2010 йил), “иштирокчи-давлатлар бундан кейин ҳам зарурат туғилганда юридик ёрдам ва кўмакни ваколатли ва мустақил суд ёки трибуналлар томонидан адолатли суд муҳокамасини ўтказиш орқали олган ҳолда хотин-қизлар арзон ва мавжуд ҳуқуқий ҳимоя воситаларидан ўз вақтида фойдаланишини таъминлашлари шартлигини” тушунтирди.

• Хотин-қизларни камситишга барҳам бериш бўйича кўмита ўзининг 33-сонли умумий тавсиясида хотин-қизларнинг одил судловга эришишини таъминлаш бўйича иштирокчи-давлатларнинг мажбуриятини назарда тутди. • Пекин ҳаракатлар платформаси “... ушбу сиёсатни амалга оширишга масъул бўлганлар орасида, масалан, ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ходимлари, полиция ва суд ходимлари, тиббиёт ва ижтимоий ходимлар орасида хотинқизларга нисбатан зўравонлик сабаблари, оқибатлари ва механизмлари



тўғрисида билим даражасини ва тушунчаларни оширишга қаратилган чоратадбирлар ва дастурларни фаол равишда тарғиб қилиш, қўллаб-қувватлаш ва амалга оширишга гендер жиҳатларни инобатга олмайдиган қонунлар, суд ва ҳуқуқни муҳофаза қилиш чораларини қўллаш натижасида зўравонликдан жабрланган хотин-қизларнинг қайта зўравонликка учрамасликлари учун шароитлар яратишга қаратилган стратегия ишлаб чиқишга” ундайди.

• Хотин-қизларга нисбатан зўравонликка барҳам бериш тўғрисида декларацияга (1993 й.) мувофиқ давлатлар зўравонликка учраган хотинқизларга етказилган зарарни қоплаш ва ҳуқуқбузарликни жазолаш учун ўз миллий қонунчилиги доирасида жиноий, фуқаролик, меҳнат ва маъмурий санкцияларни ишлаб чиқиш мажбуриятини олади. Бундай хотин-қизларга одил судловни амалга ошириш механизмидан ва миллий қонунчиликка мувофиқ уларга етказилган зарар билан боғлиқ адолатли ва самарали ҳуқуқий ҳимоя воисталаридан фойдаланиш имкони таъминланган бўлиши шарт. Иштирокчидавлатлар, шунингдек, ушбу механизмлар орқали етказилган зарарни қоплаш бўйича ҳуқуқлари борлиги ҳақида хотин-қизларни хабардор қилиши шарт. Одил судловга эришиш имкониятларига алоҳида эътибор қаратилган аҳолининг заиф тоифаларига тааллуқли халқаро ҳужжатларни ҳам таъкидлаб ўтиш лозим. Масалан, Барча меҳнаткаш-мигрантлар ва уларнинг оила аъзолари ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида халқаро конвенция (1990 й.) иштирокчидавлатдан меҳнаткаш-мигрантлар ва уларнинг оила аъзоларининг суд муҳокамасининг оқилона муддатда амалга оширилиши ёки ундан озод қилинишига бўлган ҳуқуқини таъминлашни; судлар ва трибуналларда тегишли давлат фуқаролари билан тенглигини; уларга нисбатан ҳар қандай жиноий айблов қўйилган пайтда минимал кафолатларни белгилашни талаб этади. [4]

Ўзбекистон Республикаси Конституциянинг 44-моддаси[5] ҳар бир шахсга ўз ҳуқуқ ва эркинликларини суд орқали ҳимоя қилиш, давлат органлари, мансабдор шахслар, жамоат бирлашмаларининг ғайриқонуний хатти-ҳаракатлари устидан судга шикоят қилиш ҳуқуқини кафолатлайди.

Ўзбекистонда судга мурожаат қилишга оид қонунчилик нормалари (хусусан, барча кодекслар) гендер жиҳатдан нейтрал бўлиб, ҳеч қандай камситишсиз ҳар кимнинг судга мурожаат қилиш ҳуқуқини таъминлайди.

Ўзбекистон Республикаси ФПКнинг 3-моддасида Суд орқали ҳимояланиш ҳуқуқи Ўзбекистон Республикасининг Конституциясига мувофиқ ҳар бир шахсга ўз ҳуқуқларини, эркинликларини ва қонуний манфаатларини суд орқали ҳимоя қилиш кафолатланади. Ҳар қандай манфаатдор шахс бузилган ёки низолашилаётган ҳуқуқи ёхуд қонун билан кўрикланадиган манфаатини ҳимоя қилиш учун фуқаролик суд ишларини юритиш тўғрисидаги қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда фуқаролик ишлари бўйича судга (судга) мурожаат қилишга ҳақли.

Ўзбекистон Республикаси ЖПКнинг 16-моддасида Одил судловни фуқароларнинг қонун ва суд олдида тенглиги асосида амалга ошириш Жиноят ишлари бўйича одил судлов фуқароларнинг жинси, ирқи, миллати, тили, дини, ижтимоий келиб чиқиши, эътиқоди, шахсий ва ижтимоий мавқеидан қатъи назар, қонун ва суд олдида тенглиги асосида амалга оширилади. [6] Бундан ташқари, 2019 йилда Ўзбекистонда иккита қонун қабул қилинди. Булар – “Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида”ги қонун ва “Хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида”ги қонун [6]. Ҳар икки қонунда суд орқали ҳимояланиш ҳуқуқи тўғрисида алоҳида модда мавжуд.

Ўзбекистон Республикасида амал қиладиган кўп сонли қонунчилик ҳужжатлари Конституциянинг юқорида келтирилган қоидаларини бундай ҳужжатлар тартибга солиб турадиган ижтимоий муносабатларга нисбатан аниқлаштиради. Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодекси меҳнатга оид муносабатларда имкониятларнинг тенглиги ва дискриминация қилишнинг таъқиқланишига жиддий эътиборни қаратади. Хусусан, ушбу Кодекснинг 6-моддаси биринчи қисмига биноан “барча фуқаролар меҳнат ҳуқуқларига эга бўлиш ва улардан фойдаланишда тенг имкониятларга эгадир. Жинси, ёши, ирқи, миллати, тили, ижтимоий келиб чиқиши, мулкӣ ҳолати ва мансаб мавқеи, динга бўлган муносабати, эътиқоди, жамоат бирлашмаларига мансублиги, шунингдек ходимларнинг ишчанлик қобилиятларига ва улар меҳнатининг натижаларига алоқадор бўлмаган бошқа жиҳатларига қараб меҳнатга оид муносабатлар сода си да хдр қандай чеклашларга ёки имтиёзлар белгилашга йул қўйилмайди ва булар дискриминация қилиш деб ҳисобланади”. Меҳнат кодекси 6-моддасининг учинчи қисми меҳнат соҳасида ўзини камситилган деб ҳисоблаган шахснинг дискриминация қилишни бартараф этиш ҳамда узига етказилган моддий ва маънавий зарарни тулаш тўғрисидаги ариза билан судга мурожаат қилиши мумкинлигини



назарда тутати.

Шундай қилиб, Ўзбекистон Республикасида эркаклар билан хотин-қизлар ҳуқуқларининг тенглиги ва жинсий белгига кўра дискриминация қилишга йўл қўйилмаслиги қонунлар орқали мустаҳкамлаб қўйилган, дискриминация қилишга дучор бўлган шахснинг ўзини суд орқали ҳимоя қилиш имконияти, суднинг бузилган ҳуқуқни қайта тиклаши ва дискриминация қилиш оқибатида етказилган моддий ва маънавий зарарнинг қопланиши назарда тутилган. [7]

Ўзбекистон Республикаси “Хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида” Қонунининг[8] мақсади хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликнинг барча шаклларида ҳимоя қилиш соҳасидаги муносабатларни тартибга солишдан иборат. Тазйиқ ва зўравонликдан жабрланувчи етказилган моддий зарарнинг ўрнини қоплаш ҳамда маънавий зиённи компенсация қилиш тўғрисидаги ариза билан судга мурожаат этганда давлат божи тўлашдан озод қилинади.

Амалиётда кўп ҳолларда, ички ишлар органлари ходимлари томонидан жабрланувчи ва зўравонлик содир этган шахсни қандай бўлмасин яраштириш учун ҳатти-ҳаракатлар қилиш ҳолатлари кўплаб учрамоқда. Айниқса, маъмурий жавобгарлик назарда тутилган тухмат ва ҳақорат қилиш ҳолати бўйича қўзғатилган маъмурий ишлар судгача етиб бормасдан, ариза берган тарафни ўз аризасини қайтариб олишга ундаш ёки яраштириш билан яқунлаш ҳолатлари ҳам мавжуд. Афсуски, бундай ҳолатлар асрлар давомида шаклланиб келаётган анъаналар ва оиладаги муаммоларни ташқарига олиб чиқмасдан оилаларда ошкор этилмаслиги оила турмуш доирасидаги зўравонлик билан боғлиқ ҳуқуқбузарликларнинг латентлик даражаси ошиб кетиши ҳамда такрорланишига олиб келмоқда. Натижада айрим ҳуқуқбузар шахслар содир этган ҳатти-ҳаракатлари учун ҳеч қандай жавобгарликка тортилмасдан қолмоқда ва аёлларнинг ҳуқуқлари поймол этилиши давом этмоқда. Суд-тергов амалиётида, кўп ҳолларда шахс оиладаги зўравонликдан жабрланган, ҳақоратланган, қалтакланган, камситилган ва таҳқирланган тақдирда ҳам айбдорнинг суд ёки тергов муҳокамаси жараёнида жиноий жавобгарликка тортилишини истамаганлиги ёхуд жиноят иши қўзғатилган тақдирда ҳам уни кечирганлигини кўриш мумкин.

Ўзбекистон Республикаси ЖКнинг 109-моддаси бўйича судларда кўрилган ишларнинг 76,3% тарафлар ярашганлиги сабабли жиноят ишлари тугатилган. Модомики, жиноят ишини тугатишнинг имкони бўлмаган бўлса, жабрланувчи дастлабки тергов ва суд муҳокамаси пайтида айбдорнинг айбини юмшатишга, ҳатто содир этилган жиноятни тўла инкор этишга ҳаракат қилиб, оиласининг бузилиб кетишини сақлаб қолишга ҳаракат қилган. Жабрланувчининг айбдор билан ярашиши мотивлари: айбдорнинг жиноят содир этганидан кейинги ҳулқи, етказилган зарарни қоплаганлиги, ўзига яқин инсон бўлганлиги, раҳм қилиши, дўстлик, ҳамкорлик ва ҳ.к. [9] Бундай вазиятлар кўп ҳолларда одил судловни амалага оширишда ва аёлларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилишда тафовутларни келтириб чиқаради. Шунингдек, чиқарилаётган қонун ҳужжатларининг самарадорлигини пасайтириди ва аёллар ҳуқуқларини бузилишда давом этишига замин яратди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. <https://constitution.uz/uz/pages/humanrights>
2. [https://nrm.uz/contentf?doc=38431_konvenciya_o_zashchite_prav_cheloveka_i_osnovnyh_svod_\(rim_4_noyabrya_1950_g_\)](https://nrm.uz/contentf?doc=38431_konvenciya_o_zashchite_prav_cheloveka_i_osnovnyh_svod_(rim_4_noyabrya_1950_g_))
3. <https://constitution.uz/uz/clause/index>
4. <https://lex.uz/docs/111460>
5. <https://lex.uz/docs/4494873>
6. Хотин-қизларнинг одил судловга эришиш даражасини ошириш: энг яхши жаҳон тажрибаси ва миллий амалиёт / Ф. У. Хамдамова ва Д. Ш. Умарханова;- Т.:, 2020-8-10 б
7. Аёл ҳуқуқи ва эркинликлари /Муаллиф жамоаси: Г.Н.Тансиқбаева, М.Ю.Гасанов, А.М.Додирова ва бошқ;- Т.: “Адолат”, 2002-31 б
8. Ўзбекистон Республикаси “Хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида” Қонуни // Зўравонликдан жабрланганлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ва зўравонликнинг олдини олиш [Матн] : услубий қўлланма / Ш. А. Пулатова, А. Ш. Муродов — Тошкент: Baktria press, 2020.-24 б.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 1-ҚИСМ

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.04.2023

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000